

## BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QUVCHILARINI DARS

### MASHG'ULOTLARIGA QIZIQTIRISHDA ART PEDAGOGIKANING AHAMIYATI

Ermatova Nigina Farxod qizi

Shahrisabz Davlat Pedagogika instituti

2-bosqich talabasi

#### Annotatsiya:

Ushbu maqolada muallif boshlang'ich sinf o'quvchilarini matematika, ona tili, o'qish, tabiiy fanlar darslariga ART terapiya orqali qiziqtirish, o'quvchilarning darsdagi faolligini oshirishda ART pedagogikaning imkoniyatlari xususida so'z yuritadi.

**Kalit so'zlar:** ART pedagogika, pedagogik mahorat, ART terapiya, biblioterapiya, ertak terapiyasi, imagoterapiya, qo'g'irchoq terapiyasi.

Mamlakatimiz rivojlanish bosqichiga yangi qadamlarini qo'yarkan kelajak egalari bo'lgan yoshlarning ta'lim-tarbiyasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Yosh avlodning sifatli ta'lim olishi bugungi kunda eng e'tiborli jihatlardandir. Shu sababli bugun yurtimizda ta'lim sohasini rivojlantirish uchun, malakali kadrlar tayyorlash uchun, bir so'z bilan aytganda, baxtiyor kelajakni barpo etish uchun astoydil harakat qilinmoqda.

Darhaqiqat, "Kelajak-yoshlar qo'lida". Yoshlarning tarbiyasi, bilimli, salohiyatli, ma'naviyatli bo'lib voyaga yetishi porloq va istiqbolli kelajagimiz poydevoridir. Poydevor jumlasini ishlatarkan ekanmiz, shu o'rinda boshlang'ich ta'lim tizimi ko'z o'ngimizda namoyon bo'ladi. Boshlang'ich ta'lim davrida olingan bilim keyingi



davrlardagi bilim, ko'nikma va malakalarni egallash va shakllantirish uchun dasturilamal bo'lib xizmat qiladi. Shunday ekan bolajonlarga ilk ta'lim-tarbiyani mohirlik bilan yetkazib bera olish har bir o'quvchi-pedagogning kasbiy vazifasi hisoblanadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari maktabga ilk qadam qo'ygan onlarida ko'p kuzatiladigan holatlardan biri darsga qiziqish pastligi, vazifalarga loqaydlikdir. Negaki qo'g'irchoq o'ynab yurgan bola birdan parta-stul yonida "mixlanib" qolishi bola uchun qaysidir ma'noda jazo. Ana shunday davrda o'qituvchi-pedagogdan, otanadan talab qilinayotgan birdan-bir talab bolaga to'g'ri yo'l ko'rsatish orqali undagi darsga bplgan muhabbatni oshirishdir. Bolaning tabiatidan ham ma'lumki, bola ko'proq yengillikka, o'yinga talpinadi. Shuning uchun ham maktabda beriladigan vazifalar, topshiriqlar bola uchun dunyodagi eng og'ir yumush kabi tuyuladi. Shu sababli o'quvchi vazifalarni bajarishdan xavfsirab turadi, yoki o'yinni topshiriqdan ustun qo'yadi. Buning natijasida o'quvchining darsga bo'lgan qiziqishi so'nadi, loqaydlik, beparvolik kabi hislatlar shakllana boshlaydi. Bu jarayon o'qituvchi uchun tushunarsiz va murakkab jarayondir. Bu holatda o'qituvchi o'quvchining qiziqishlaridan kelib chiqqan holda fanlar integratsiyalashuvi asosida darsni tashkil qilishi zarur.

Tan olish kerakki, ta'lim tizimimizda o'quvchi qizishlari o'qituvchi maqsadlaridan ustun bo'la olmaydi. So'zlarimni bugungi kunda ayrim maktablardagi boshlang'ich sinf dars mashg'ulotlari davomiyligini kuzatish natijasida isbotlashimiz mumkin. Ming afsuski ba'zi bir boshlang'ich sinf o'quvchilari ona tili, matematika, o'qish fanlaridan boshqa fanlar xususida tushunchaga ega emas, taassuflar bo'lsinki, o'quvchilar boshlang'ich sinfda faqat ona tili, o'qish, matematika fanlari o'qitiladi, deb o'ylaydi, xolos. Aslida o'qitilishi kerak bo'lgan har bir fan o'quvchi uchun muhimdir. Hujjatlarda o'qitilayotgan o'sha tasviriy san'at, musiqa, tabiiy



fanlar, tarbiya, texnologiya kabi fanlar qaysidir o'quvchining kelajakdagi kasbi uchun poydevor bo'lishi mumkin aslida. Ba'zi bir o'qituvchilarning nazarida "keraksiz bo'lgan" bu fanlarni o'qitishda ham pedagogdan yuksak mahorat talab etiladi. Aniq fanlarga sarflanayotgan vaqt reglamentini nazorat qilgan holda o'quvchilar uchun qiziqarli bo'lgan barcha fanlarni mohirona o'tish mumkin.

O'quvchilarning darsda faolligini oshirish uchun turli xil ART terapiya usullarini qo'llash, fanlarni integratsiya qilish maqsadga muvofiqdir.

Fanlar integratsiyalashuvi nima? Integratsiya lotincha so'z bo'lib, "tiklash", "to'ldirish" degan ma'nolarni ifodalaydi. Fanlar integratsiyalashuvi esa o'quv jarayonini takomillashtirishdagi hamkorlikdir. Boshqacha qilib aytganda, fanlarni o'zaro bog'lab dars jarayonini tashkil etish.

O'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini oshirishda integratsiyadan qanday foydalanish mumkin? Aytaylik, sinfda 30 ta o'quvchidan 18tasi matematikaga juda ham qiziqadi, qolganlari esa o'qishga, tasviriy san'atga yoki texnologiyaga qiziqadi. Bunda o'qituvchi qolgan o'quvchilarni ham matematika faniga qiziqtirish maqsadida fanlar integratsiyasi asosida darsni tashkil etadi. Ya'ni o'quvchilarga matematika darsligida berilgan masala matni asosida rasm chizdirish, masala matnida keltirilgan detallarni yasash, masala matnini o'quvchilarga ifodali o'qitish orqali darsga beparvo o'quvchilarni ham dars mashg'ulotlariga jalb qila olish mumkin. Mana shu tarzda tashkil etilgan darslarni integratsion darslar deyishimiz mumkin. Integratsion darslarda ahamiyatli jihat shundaki, o'quvchi oshkor va yashirin qobiliyatlarini, mahoratini namoyon qila olishi mumkin. Bundan tashqari integratsion darslarda o'quvchi o'z ustida ko'proq ishlashi, iqtidorini yanada sayqallantirib borishi, sog'lom raqobat asosida malaka hosil qilishi mumkin.

Darsga qiziqishi past bo'lgan o'quvchilarni darsga jalb qilishda yana bir usul ART pedagogikadan foydalanishdir.



ART pedagogika bu ta'lim-tarbiya ishlarini san'at vositasida olib borishdir.

O'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishlarini ART pedagogika yordamida qanday qilib shakllantirish mumkin? Buning uchun, albatta, o'quvchilarning yosh doirasi va qiziqishlari inobatga olingan holda ART terapiya usullaridan foydalanish orqali darsda o'zgacha kayfiyatni va faollikni hosil qildirish mumkin.

ART terapiya nima? ART terapiya- insonning psixo-emotsional holatini ifodalash uchun plastik-vizual ijod bilan ishlov berish usulidir.

ART terapiya turlari:

- biblioterapiya
- ertak terapiyasi
- raqs terapiyasi
- imagoterapiya
- izoterapiya
- fototerapiya
- qo'g'irchoq terapiyasi
- musiqa terapiyasi

ART terapiyaning biblioterapiya, ertak terapiyasi, imagoterapiya, qo'g'irchoq terapiyasi, izoterapiya kabi usullari orqali o'quvchiga ham ma'naviy ozuqa, ham estetik tabiiya, ham sifatli ta'lim berish mumkin.

O'quvchilarni dars mashg'ulotlariga qiziqtirishda ART terapiyadan qanday foydalanish mumkin?

O'qish darslarida qo'g'irchoq terapiyasi, imagoterapiya kabi usullarni qo'llash orqali darsda o'zgacha jonli sahna yaratish mumkin. Bu usul yordamida o'quvchilarning aktyorlik mahoratlarini ham kashf etishimiz mumkin. Bundan tashqari izoterapiya usuli orqali estetik zavq tuyg'usini shakllantirishimiz mumkin.



ART terapiyaning biblioterapiya, ertak terapiyasi kabi usullari orqali bolani kitobga oshno qilishimiz, kitob mutolaasi orqali tarbiyalashimiz mumkin.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini oshirish uchun, bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish uchun, darslarda faol qatnashishi uchun ota-ona va o'qituvchi hamkorlikda bolaning qiziqishlari doirasidan kelib chiqqan holda birday harakat qilishlari lozim. Bolaning qobiliyatini vaqtida payqagan holda unga to'g'ri yo'l ko'rsatish bola uchun ham, uning kelajagi uchun ham imkoniyat yo'li bo'lishi mumkin. Zero "Farzandlarimiz bizdan ko'ra kuchli, bilimli, aqlli, dono va albatta baxtli bo'lishlari shart."

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1) I.A.Karimov "Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch" Toshkent - "Ma'naviyat" - 2010
- 2) B.X.Xodjaev "Umumiy pedagogika" Toshkent - "Sano-sanoat" - 2013
- 3) A.Jalolov "Mustaqillik mas'uliyati" Toshkent - "O'zbekiston" - 1996
- 4) M.Quronov "Milliy tarbiya" Toshkent - "Ma'naviyat" - 2007.